

TIQXMMIda KASKAD - 2020 birinchi xalqaro konferentsiyasi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida 10-11-dekabr kunlari Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mamlakatlarini rivojlantirish bo'yicha qishloq xo'jalik universitetlari konsorsiumi(KASKAD)ning 10 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferentsiyasi o'tkazildi. Ushbu konsortsiumning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mamlakatlarida qishloq va suv xo'jaligi OTMlarda tadqiqot va innovatsiyalarini rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda ilmiy asoslangan innovatsion g'oya va ishlanmalarni yaratishdan iborat.



Konsortsium o'z faoliyati davrida Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonning 15 dan ortiq oliy ta'lif muassasalarini o'zida birlashtirib, fan-talim-innovatsiyalar borasida universitetlararo integratsiyani o'zida mujassamlashtirgan. Bugun konsortsiumning 10 yilligiga bag'ishlangan CASCADE 2020 -"Markaziy Osiyo va Kavkazda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish" Birinchi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti bazasida o'z ishini onlayn shaklda boshladi. Anjumanning asosiy maqsadi O'rta Osiyo va Janubiy Kavkaz mamlakatlarinining qishloq xo'jaligi soxasida ta'lif, ilmiy va innovatsion hamkorlikni kuchaytirishdan iborat bo'lib, o'zining 1000dan ortiq olimlarini birgalikda xamkorlik qilishlari uchun yangi muloqot platformasini tashkil etadi. Mazkur anjumanga qiziqishlarni ortishi bilan, tadbirning ochilishida 20 dan ortiq mamlakat (Armaniston, Avstriya, Ozarbayjon, Xitoy, Kosta-Rika, Gruziya, Gana, Hindiston, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Janubiy Koreya, Aqsh, Portugaliya, Fransiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, O'zbekiston) larning olimlari, professor o'qituvchilar, doktorantlari, ishtiroy etishdi.



Ushbu birinchi xalqaro ilmiy-amaliy konferensianing ochilishiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda hamkor davlatlarning vazirlik va idoralari raxbarlari, Xalqaro hamkor uyushmalar (GCHERA, APLU-USA, ICA-EU, SAERIA-China i CASCADE), xalqaro tashkilotlar (GIZ, FAO, ICARDA, CAREC, IFAS va boshqalar.) hamda yetakchi universitetlarining rektorlari so'zga chiqdilar, jumladan: O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziri, Tojikiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirining birinchi o'rinnbosari, Qirg'iziston Respublikasi qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati va melioratsiya vaziri o'rinnbosari, O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri o'rinnbosari, Turkmen Xalq ta'lifi vazirligining xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, Qozog'iston Respublikasi milliy agrar ilmiy-ma'rifiy markazi rahbarlari so'zga chiqib, mintaqadagi sohaga oid dolzarb muammolar va ularning yechimini birlashgan olimlar kengashi orqali hal qilishga asosiy e'tibor qaratildi. Anjumanning plenar yig'ilishida konsortsiumning kollegial qarori bilan 10-yillik yubileyga bag'ishlangan "Xalqaro mezonlar bo'yicha yetakchi olim", "Xudud uchun katta hissa qo'shgan yetakchi olim", "Eng faol pedagog", "Eng faol talaba" kabi nominatsiyalar tanlovining natijalari bo'yicha munosib nomzodlar diplom va qimmat baho sovg'alar bilan taqdirlar.

TIQXMMI Matbuot xizmati